



O'ZBEK MUSIQA SAN'ATIDA DUTORCHI QIZLAR ANSAMBLINING AHAMIYATI

Shukurjonova Xusnora Farhod qizi

Guliston Davlat Universiteti

San'atshunoslik fakulteti, o'qituvchi

xusnorashukurjonova8@gmail.com

Tel: 99 870-98-24

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15316152>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 30th April 2025

KEYWORDS

ansambl, ijrochilik, dutor, madaniyat, tarix, jamoa, konsert, taraqqiyot, yodgorlik, ijrochilik.

ABSTRACT

Dutorchi qizlar ansamblari O'zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, milliy musiqa rivojida muhim o'rin tutadi. Ular an'anaviy cholg'u ijrochiligining saqlanib qolishi va zamonaviy shaklda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada musiqa madaniyatimizda dutorchi qizlar ansamblarining o'rne va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega, ko'pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og'zaki an'anadagi ustozona musiqa san'ati bu haqda guvohlik beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining tasdiqlashicha, bugungi O'zbekiston hududida Markaziy Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari (sharq poetik ijodiyoti asarlarida tasvirlangan miniatyuralar), sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va, nihoyat, o'rta asrdagi Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan olimlarning musiqiy risolalari tarjimasini o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi¹.

O'zbekiston milliy musiqa san'ati asrlar davomida shakllanib, o'ziga xos an'ana va ohanglarga ega bo'lib kelmoqda. Ushbu san'atning rivojlanishida turli ansambllar va ijodiy jamoalarning o'rne beqiyosdir. Ana shunday jamoalardan biri yurtimizning ko'plab hududlarida o'z faoliyatini olib borayotgan, professional va havaskor tarkibdagi dutorchi qizlar ansamblidir. Ushbu ansambllar o'zbek musiqa san'ati tarixida muhim o'rin tutib, dutor cholg'u asbobini yanada ommalashtirish va rivojlantirishda katta hissa qo'shgan. Shu o'rinda ansambl o'zi nima, u qanday ijrochilik turi degan savollar bo'lishi tabiiy albatta.

XX asr boshlarida, sovet davrida Pampelli ekspeditsiyasi tomonidan Janubiy Turkmaniston, Xorazm, quyi Zarafshon hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, eramizdan bir necha ming yillar ilgari ham O'rta Osiyo hududida yuqori darajada rivojlangan musiqiy madaniyat shakllanganligini madaniy yodgorliklari isbotida cholg'u sozlar ansamblarining xilma-xil turlarini

¹ B.X.Madrimov. O'zbek musiqa tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018, 5-b.

uchratish mumkin. Bu yodgorliklarda bir xil cholg' u sozlardan tuzilgan ansambllar mavjudligi ham diqqatga sazovordir. Xususan, arfachilar ansambli, tanburchilar ansambli kabilar shular jumlasidandir.²

O'rta asrlarda yaratilgan tasviriy miniatyuralarda ham ko'plab musiqiy cholg'ular o'z aksini topgan. Bunda qo'lida soz tutgan cholg' uchilar ansambllari keng o'rin egallaydi. XV-XVII asr miniatyuralari va yozma manbalarini o'rgana turib, maishiy hayot, turli yig'inlar va saroy qabullarida xilma-xil musiqiy cholg'ularning aks etganini kuzatish mumkin.

"Ansambli" (fransuzcha ensemble – birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik) musiqada – a) ma'lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi. Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), seket (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va h.k.larga bo'linadi"³.

Ansambli ijrochiligi musiqa san'atining barcha turlarida mavjud. Musiqa ijrochiligida ko'plab ansambllar mavjud bo'lib, ularning ijroviy jarayonidagi yo'nalishlari ularni bir-biridan farqlab turadi.

Ansamblning asosiy xususiyatlaridan biri - bu tovushlarning birlashishi va bir vaqtning o'zida bajarilishidagi harakatlarning izchilligi, shuningdek ijroning bir xilligi. Shu bilan birga, tovush birlashuvi ostida intonatsion tembr va ijroning dinamik birligi, bir vaqtning o'zida - ritmik birlik tushuniladi. Bir xillik har xil turdagi hujumlar, zarbalar, aksentlar va boshqalarni bajarishda texnologik va vaqt birligini anglatadi.

O'zbekistonda dutorchi qizlar ansambllari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarqala boshladi. Bunga milliy musiqa va folklor san'atiga e'tibor kuchayishi, shuningdek, an'anaviy cholg' u ijrochiligini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'ldi. Dutor ansambllari milliy musiqa merosini saqlab qolish, yosh avlodga yetkazish va zamonaviy san'at bilan uyg'unlashtirish maqsadida tashkil etilgan. Ansambllar turli festivallar, milliy tadbirlar va xalqaro konsertlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda dutorchi qizlar ansambllari milliy va xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega. Ularning faoliyati bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda:

Dutorchi qizlar ansambllari O'zbekiston madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, milliy musiqa rivojida muhim o'rin tutadi. Ular an'anaviy cholg' u ijrochiligining saqlanib qolishi va zamonaviy shaklda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ularning faoliyati nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek musiqasining jozibadorligini dunyoga tanitishda muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qizi, S. X. F., & Shahnoza, A. (2022). MUSIQA TA'LIMIDA CHOLG' U IJROCHILIGINING UZVIYLIK MASALALARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Conference DSMI), 123-129.
2. Бахадир, Н. Ш., Каримов, Д., & Шукуржонова, Х. (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 65-71.
3. Bebetova, M., & Karimov, D. (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 28-30.
4. Вызго Т. "Музыкальные инструменты Средней Азии" Исторические очерки. Издательство «Музыка» Москва 1980.
5. I.Akbarov. Musiqa lug'ati.-T., 1987 y. 112 - bet.
6. B.X.Madrimov. O'zbek musiqa tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018, 5-b.

² Вызго Т. "Музыкальные инструменты Средней Азии" Исторические очерки. Издательство «Музыка» Москва 1980.

³ I.Akbarov. Musiqa lug'ati.-T., 1987 y. 112 - bet.

7. Dilshod, K. (2023). O'ZBEK KINOFILMLARIDA MILLIY MUSIQALARDAN FOYDALANISH HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (p. 46).
8. Karimov, D. (2023). Muvaffaqiyat Yo'Lim: Unda Topganlarim Va Yo'Qotganlarim. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 6-8).
9. Bahadirov, N., Karimov, D., & Shukurjonova, X. (2024). KOMPOZITOR REFAT IBADLAYEV. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 72-79.
10. Bebetova, M., & Karimov, D. (2024). DUTORCHI SOZANDALAR IJODIGA BIR NAZAR. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 28-30.
11. Бахадир, Н. Ш., Каримов, Д., & Шукуржонова, Х. (2024). АРТУРО ТОСКАНИНИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 65-71.
12. O'G'li, K. D. M. (2022). CHOLG'U IJROCHILIGINI O'RGANISHDA MUSIQIYNAZARIY FANLARNING O'RNI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Conference DSMI), 283-286.
13. O'G, T. A. O. K., & Shukurjonova, X. (2024). DOIRA CHOLG 'USIDA IJROCHILIK MAHORARTINI OSHIRISHDA QO 'LLANILADIGAN MASHQLAR MOHIYATI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(18), 137-139.
14. Begmatov, B., & Shukurjonova, X. (2024). QADIMIY MUSIQA MADANIYATI CHOLG 'ULARI TASNIFI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 31-34.
15. Saidvaliyeva, M., & Shukurjonova, X. (2024). DUTORLAR OILASIGA MANSUB CHOLG 'ULAR TASNIFI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(17), 35-38.
16. Rahmatova, G. (2021). The genre of odes in the oral work of the turkic peoples and its genesis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 194-196.
17. Rahmatova, G. S. (2022). SOCIAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS IN THE PERFORMANCE OF TRADITIONAL SINGING WORKS OF THE 21ST CENTURY. Экономика и социум, (2-2 (93)), 322-325.
18. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for.